

## TAVHID ASRORI. VAHDATI VUJUD VA VAHDATI SHUDUD

**Abduqahhorova Nasibaxon**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi*

**G'anijonova Dilrabo**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasavvuf din va shariat, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. Eng muhim xususiyat-tasavvufda "Ilohiy ishq orqali poklanish va pok Parvardigor vasliga yetishish g'oyasi ekanligi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tasavvuf, Tavhid, falsafa, vahdati vujud, vahdati shudud.*

Sayyid Ja'far Sajjodiyning lug'atida keltirilishicha, Tavhid Yagona Ilohiy ruh sari olib boradigan ilmdir, ya'ni Parvardigorni yakka-yu yagona vujud deb bilmoq va shu birlikka intilmoqdir. Tavhid ilmi uch xildir: biri-Haqning o'ziga yo'nalgan Haq ilmi; ya'ni Uning o'z yagonaligi ilmi; ikkinchisi- xalqqa yo'naltirilgan Haq ilmi, ya'ni uning tavhid haqidagi hukmlari va bandasi ko'ngliga tavhidni yetkazish ilmi; uchinchisi-xalqning Haqqa yo'nalgan tavhidi, ya'ni kishilarning Xudo vahdoniyatiga yetishish ilmi.

«Vahdatul vujud» – yagona vujud birligi demak. Ya'ni haqiqiy Borliq – bu Mutlaq zot – Parvardigorning yakkayu yagona vujudidan iborat, boshqa mavjudliklar shu Vujudning ijodi, in'ikosidir. Mutlaq zotni al-Haq (Real borliq), al-Ahad (Birlik) deb ham ataydilar. U O'zi yaratgan olam ashyolarida (olami shahodat, olamul xalq) O'zini namoyon etib, zohir-lanib turadi va shu orqali O'zi O'zini idrok etadi. Bu cheksiz va mavhum Mutlaq zotning shahodat (moddiy) olamda tinimsiz jilolanishi «tajalliy» deb atalgan. Tajalliy – barcha harakat va faoliyat, tiriklik va hayot ijodkori Parvardigorning o'zi yaratgan olamda doimo hozir bo'lishidir. Ammo shuni aytish joizki, Ibn Arabiy nazarida Mutlaq zot – bu xuddi Mutlaq g'oya, fikrday gap. Shuning uchun u O'zining sifatlari va ismlari orqali ayonlashib, konkretlashib boradi. Bu esa bosqichma-bosqich xarakterga ega. Mutlaq g'oyadan – tasavvurga – tasavvurdan – loyihaga – loyihadan – obrazga – obrazdan – aniq shakllarga o'tish. Shu uchun a'yon, a'yoni sobita, barzax, taayyun, suvari ilm kabi istilohlar ishlatiladi. «A'yon» – Mutlaq g'oyaning tasavvuriy ayonlashuvini anglatadi, «a'yoni sobita» – timsol (probraz) suratiga kirishni anglatadi. «Taayyun» – Mutlaq g'oyaning moddiy olam ko'rinishida konkretla-shuvidir, «bar-zax» esa Mutlaq g'oya manbai bilan a'yon orasidagi chegarani ifodalaydi. Shunday qilib, tajalliy a'yoni sobita orqali sodir bo'ladi va natijada Mutlaq zot narsa va xodisalarda O'z sifatlari va ismlari vositasida reallashadi. Buni soddaroq qilib tushuntirsak, ismlar Haqning soyasi

bo'lsa, a'yon – ismlarning soyasi, ruhiy olam – a'yon soyasi, moddiy olam – ruhiy olam soyasidir. Shunday bo'lgach, so'fiy shahodat olami (moddiy dunyo)ning barcha jilva va go'zalligida Mutlaq zot qudrati va azamati, jamolu kamolini his qila borish, chuqur idrok etish oraqli Mutlaq zotning o'zini idrok qilib, unga yaqinlashib boradi. Ammo Ibn Arabiy bo'yicha, Ilohiy kamolning sifatlari olam bo'ylab qism-qism, alohida-alohida taraladi, faqat Komil insonda u birlashib, jamlanib, Mutlaq zotga nisbatan yaqin holatda zuhur etadi. Ya'ni Komil inson – Mutlaq zotning muxtasar nusxasiga aylanadi, shu bois Haq taolo Komil insonda O'zini to'liq holda namoyon etadi va O'z-O'zini mushohada qiladi.

Vahdatul vujud nazariyasi Sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tasavvufning fikriy – mushohadaviy doirasini kengaytirdi. Ammo uni hamma so'fiylar ham qabul qilgan emaslar. Vahdatul vujudni zararli ta'limot, shariatga zid qarash, deb baholaganlar ham ancha edi. Chunonchi Ibn Taymiya, Ibn Xaldun, al-Asqaloniy, Alouddavla Simnoniy shunday kishilardan bo'lgan. Alouddavla Simnoniy vahdatul vujud o'rniga vahdatush shuhud (yagona guvohlik yoki mushohada birligi) nazariyasini taqdim etgan. Bu nazariyaga ko'ra, Mutlaq zot sifatlari jami ashyolarga emas, balki inson qalbida jilolanadi. Insonning maqsadi esa musaffalanib, Mutlaq vujud nurini qabul qilishga tayyorlanib borishdir. Shunday qilib, orif inson – Mutlaq zotning sifatlari, qudrati va kamolining shahodati (guvohi) bo'la oladi. Bu ham, baribir, boya ko'rganimizdek, Ibn Arabiyda bor: Komil inson kichik olam bo'lgani uchun ulug' olam xususiyatlarini aks ettiradi. Simnoniy Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Aynul Quzzot Hamadoniy fikrlarini qayta jonlantirib, insonning ilohga yaqinligini ta'kidlagan. Ammo Simoniy insonning Mutlaq zotga aylanishi, ijti hod, hulul kabi hodisalarga keskin qarshi chiqadi.

Shunday qilib, tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. Ammo shunisi borki, so'fiylar o'zlarini har doim faylasuflarga va kalom ahli (shariat ahli ulamolari)ga qarma-qarshi qo'yib kelganlar. Nega? Chunki kalom ahli Qur'on oyatlari, Payg'ambar hadislarini zohiran o'rganish, olam yaratilishi va tuzilishini aynan diniy tasavvurlar bilan tushuntirishdan nariga o'tmas, Islomni ham, iymonni ham aql bilan qabul qilish va ahkomlarning rasm-rusmlari, odatlarini mustahkam saqlash uchun kurashganlar. Shu bois so'fiylar ahli kalomni «muqallidlar», ya'ni o'tganlarga taqlid qiluvchilar, quruq aqidaparastlar deb ataganlar. Faylasuflar (chunonchi, Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd kabi) esa yunon donishmandlari Aflotun va boshqalarning tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlashmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo'lidan borganlar. Ko'rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim yig'ish yetakchilik qiladi.

Tasavvufning «falsafiylik» davri XIII–XIV asrlarda bir qator mutafakkir adiblar, orif sufiylar yetishib chiqdiki, biz ularni tasavvufni falsafa bilan bog'lovchilar deb aytamiz. Chunonchi, Ibn al Arabiy, Abu Homid Muhammad G'azzoliy, Fariddin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhravardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Koshoniy, Abdulkarim Jiliy, Mahmud Shabistariy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil shunday mutafakkirlar sirasiga kiradi. Bularning ijodida olam va odam haqida o'ylar, qazovu qadar, erk va ixtiyor, suvrat va ma'no, aql va ruh, vaqt va zamon, inson tiynati xususida ko'plab yangi qarashlar bayon etilgan. Bu zotlar ilohiyshunoslikni butunlay yangi pog'onaga ko'tardilar. Ularning asarlarida insoniy ma'rifat, insoniy kechinmalar tasviri va tahlili bilan olib boriladi, komil inson xislatlari batafsil ishlab chiqildi.

Tasavvuf musulmon xalqlarining axloqiga chuqur singib borgan, bu shu darajadagi, darvesh, so'fiy axloqi bir ibrat, namuna sifatida olib qaralgan. Darvesh ko'pdan-ko'p badiiy asarlarning qahramoniga aylangan. «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Mo'hsiniy» kabi o'rta asr axloq kitoblarida davlatchilik, adolatli jamiyat, odil hukmdor tushunchalari ham so'fiyona qarashlarga bog'lab talqin etiladi. Bu g'oyalar badiiy adabiyotdan chuqur o'rin oladi va o'ziga xos tasavvuf estetikasi shakllanadi. Shular asosida komil inson axloqi, ma'avniyati haqidagi qarashlar majmui to'plangan. Tasavvuf g'oyalari bora-bora xalqning yaxshilik, oliy haqiqatlar haqidagi g'oyalari, orzulari bilan qo'shilib ketadi va fol'klorga ham singadi.

Bu qisqa bayonimiz shuni ko'rsatadiki, tasavvuf biror-bir falsafiy tizim o'rnini egallashga da'vo qilgan emas. U bir tomondan diniy, ikkinchi tomondan, falsafiy-irfoniy qarashlardan oziqlangan o'ziga xos ta'limot va axloqiy ustavlar majmuidir. U inson ruhiyati erki, inson ichki olami, hislari parvozini ifodalab, Sharq falsafiy tafakkurida muhim o'rin egallagan, ma'naviyatimizni boyitishga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan ezgu g'oyalar, najib hikmatlar silsilasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. "Movarounnahr"-2009.
2. Sajjodiy. Farhangi mustalahoti urafo-138-bet.
3. Islom tasavvufi manbalari. Ilmiy majmua. "O'qituvchi "-2005.
4. Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. Buxoro-2004.
5. Matkarimova S. Tasavvuf va badiiy ijoy. O'.U.M. Urganch, 2019.
6. [www.tasawwuf.ru](http://www.tasawwuf.ru).
7. [www.literature.uz](http://www.literature.uz).
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).